



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 384 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsonal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021-2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
O'zbekistonda hududlarning soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish	346
Poyonov Otabek Abdigaxxor o'g'li	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqnullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjieva Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	



FAROVONLIKNI BAHOLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY NAZARIY YONDASHUVLAR

Norqobilov Nusratilla Norsaitovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish” kafedrasining mustaqil izlanuvchisi

nusrat.1977@mail.ru

orcid: 0009-0006-5045-1194

Annotatsiya: Maqolada farovonlik tushunchasining nazariy asoslari va uni baholashda qo'llaniladigan ilg'or xorijiy yondashuvlar tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida ushbu ilg'or yondashuvlarni tatbiq etish imkoniyatlari va ularning amaliy afzalliklari bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: Farovonlikni baholash, inson salohiyati, farovonlik indeksi, subyektiv farovonlik, hayot sifati, xalqaro tajriba.

Abstract: The article analyzes the theoretical foundations of the concept of well-being and advanced foreign approaches used in its assessment. Recommendations are made on the possibilities of implementing these advanced approaches in the conditions of Uzbekistan and their practical advantages.

Key words: Well-being assessment, human potential, well-being index, subjective well-being, quality of life, international experience.

Аннотация: В статье анализируются теоретические основы концепции благополучия и передовые зарубежные подходы, используемые при его оценке. Даны рекомендации относительно возможностей реализации этих передовых подходов в условиях Узбекистана и их практических преимуществ.

Ключевые слова: Оценка благополучия, человеческий потенциал, индекс благополучия, субъективное благополучие, качество жизни, международный опыт.

KIRISH

Jahon hamjamiyatida farovonlik tushunchasiga yondashuv tubdan o'zgarib bormoqda. An'anaviy tarzda yalpi ichki mahsulot hajmi, daromad darajasi va iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari orqali baholab kelingan turmush darajasi bugungi kunda aholining haqiqiy farovonligini to'liq ifodalay olmaydi. Shu sababli, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq tahlil qilish, inson salohiyatini, ijtimoiy tenglikni, sog'liq, ta'lim va atrof-muhit sifatini o'z ichiga olgan ko'p o'lchovli yondashuvlar shakllanmoqda.

Dunyo tajribasida Amartya Sen, Mahbub ul-Haq, Jozef Stiglits kabi yetakchi olimlar tomonidan taklif etilgan farovonlikni baholashga oid nazariy asoslar global darajada e'tirof etilgan. Xususan, Inson salohiyati indeksi (HDI), OECD tomonidan ishlab chiqilgan Better Life Index, Legatum Prosperity Index kabi tizimlar turmush sifati va baxt darajasini iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy omillar asosida baholash imkonini beradi. Bu esa farovonlikni faqat moddiy boyliklar bilan emas, balki keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy mezonlar orqali aniqlashga zamin yaratmoqda.

Ushbu ishda farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, ularning mohiyati, afzalliklari va amaliy qo'llanilishi o'rganiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvlarning O'zbekiston sharoitida tatbiq etish imkoniyatlari yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Farovonlikni baholash konsepsiyasi tobora murakkablashib bormoqda. An'anaviy tarzda yalpi ichki mahsulot (YalM) kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan baholash tizimlari endilikda inson salohiyati, ijtimoiy adolat va hayot sifati kabi omillar bilan boyitilmoqda. Bu o'zgarishlar xalqaro miqyosda bir qator yetuk olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar orqali ilmiy asoslangan.

Eng mashhur yondashuvlardan biri Amartya Sen tomonidan ilgari surilgan “salohiyatlar nazariyasi” (capability approach) hisoblanadi. Unga ko'ra, farovonlik insonning real imkoniyatlari, ya'ni yashash uchun zarur shart-sharoitlar, sog'lom hayot kechirish, ta'lim olish va jamiyatda erkin ishtirok etish imkoniyatlari bilan belgilanadi [1].



Ushbu nazariy asosda BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan 1990-yillarda Inson salohiyati indeksi (HDI) ishlab chiqildi. HDI faqat daromad emas, balki umr ko'rish davomiyligi, ta'lim darajasi kabi ko'rsatkichlarga tayanadi va shu tariqa farovonlikni ko'p o'lchamli tahlil qilish imkonini beradi [2].

Farovonlikni baholashda Legatum Institute tomonidan ishlab chiqilgan Prosperity Index ham keng qo'llanilmoqda. Mazkur indeks farovonlikni baholashda iqtisodiy sifat, boshqaruv darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim, xavfsizlik, erkinliklar va ijtimoiy kapital kabi 12 ta to'liq ko'rsatkich majmuasini inobatga oladi [3].

Bu yondashuv farovonlikni faqat moddiy boyliklar emas, balki subyektiv va institutsional omillar orqali aniqlash zarurligini ilgari suradi.

Jozeif Stiglits, Amartya Sen va Jan-Pol Fitussi tomonidan tuzilgan Sifatli iqtisodiy faoliyat va ijtimoiy taraqqiyot o'lchovlari bo'yicha komissiya (Stiglitz-Sen-Fitoussi Report, 2009) esa farovonlikni baholashda "YalMdan tashqari ko'rsatkichlar" dan foydalanish lozimligini asoslab berdi. Ular farovonlikni subyektiv baholash (baxt, qoniqish), ijtimoiy ishtirok, vaqt muvozanati, sog'liq, xavfsizlik kabi ko'plab ko'rsatkichlar orqali o'lchash taklifini ilgari surdi [4].

Rossiyalik iqtisodchi olimlar orasida A.G. Aganbegyan farovonlik tushunchasiga iqtisodiy barqarorlik va aholining yashash darajasi o'rtasidagi bog'liqlik nuqtai nazaridan yondashadi. Uning ta'kidlashicha, farovonlikni baholashda faqat daromadlar emas, balki aholining ijtimoiy himoya tizimiga kirish imkoniyatlari, tibbiyot va ta'lim sifati ham muhim ahamiyat kasb etadi [5]. Shu bilan birga, Aganbegyan farovonlikni "real erkinliklar" orqali o'lchash g'oyasini ilgari surgan Amartya Sen nazariyasi bilan yaqinlashtiradi.

E.I. Kopylova va E.N. Leksina farovonlikni baholashda ko'p mezonlik yondashuv zarurligini ta'kidlab, inson kapitali, sog'liq holati, ijtimoiy xavfsizlik darajasi va madaniy muhitni asosiy omillar sifatida ko'rsatadi. Ular Rossiyada farovonlik darajasini baholash uchun subyektiv va obyektiv ko'rsatkichlar uyg'unligidan foydalanish modelini ishlab chiqqan [6].

Qozog'istonlik olimlar, xususan, M.M. Albekov va A.T. Omarovlar farovonlikni barqaror rivojlanish strategiyasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganib, uni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy komponentlar birligida ko'rib chiqadi. Ular Prosperity Index kabi xalqaro indeksdarga mos ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishni taklif etadi [7].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham farovonlikni baholashda milliy xususiyatlarni inobatga olish zarurligini asoslaydi. Iqtisodchi olimlar A.X. Hayitov va M.A. Qodirovlar aholining turmush darajasi va farovonligini baholashda bandlik, real daromadlar, iste'mol xarajatlari va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini asosiy mezonlar sifatida belgilagan [8]. Ularning tadqiqotlarida aholining farovonligi hududiy nomutanosibliklar, kasbiy bandlik darajasi va ijtimoiy tengsizlik bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, statistik guruhlash, sintez, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda xorijiy mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni baholashda turmush darajasi va farovonlik tushunchasiga tobora kengroq va chuqurroq yondashmoqda.

An'anaviy tarzda yalpi ichki mahsulot (YalM), iqtisodiy o'sish sur'atlari yoki aholi jon boshiga daromadlar kabi ko'rsatkichlar asosida baholanib kelgan farovonlik hozirda ko'p o'lchovli, kompleks mezonlar tizimi orqali tahlil qilinmoqda.

Avvalo, Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan "salohiyatlar yondashuvi" (capability approach) zamonaviy farovonlik nazariyasining asosi sifatida tan olingan. Bu yondashuvga ko'ra, insonning haqiqiy farovonligi u ega bo'lgan daromad miqdoridan emas, balki uning o'z hayotini mazmunli, sog'lom va yaxshi tarzda hayot kechirish imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Shu asosda 1990-yildan boshlab BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan Inson salohiyati indeksi (HDI) ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar, xususan, Yevropa Ittifoqi, Kanada, Avstraliya va Yaponiya kabi davlatlar farovonlikni baholashda ijtimoiy barqarorlik, ekologik muvozanat va subyektiv qoniqish darajasini ham e'tiborga olishmoqda. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan taklif etilgan Better Life Index bu boradagi yetakchi yondashuvlardan biri bo'lib, sog'liq, bandlik, ta'lim, xavfsizlik, atrof-muhit, fuqarolik erkinliklari va hayotdan mamnunlik kabi 11 asosiy yo'nalish bo'yicha baholash imkonini beradi. Bu yondashuvning muhim jihati – har bir mamlakat yoki foydalanuvchi indeksni o'z ustuvorliklariga ko'ra moslashtira oladi.

Shuningdek, Legatum Institute tomonidan ishlab chiqilgan Prosperity Index (Farovonlik indeksi) dunyoning 160 dan ortiq mamlakatidagi farovonlik darajasini 12 ta mezon orqali baholaydi.

Shu bilan birga, Skandinaviya mamlakatlari (Norvegiya, Shvetsiya, Daniya) farovonlikni baholashda "farovonlik demokratizatsiyasi" g'oyasiga tayangan holda, har bir fuqaroga teng resurs va xizmatlardan



foydalanish imkoniyatini ta'minlash darajasini asosiy mezon sifatida ko'rib chiqmoqda. Bunday yondashuvlar farovonlikni shunchaki iqtisodiy boylik sifatida emas, balki insoniy salohiyatning ochilishi, ijtimoiy adolat va barqarorlik sifatida talqin etadi.

Xorijiy farovonlik indekslarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari turlicha baholanadi. HDI (Inson salohiyati indeksi) mamlakatimiz statistikasi bilan to'liq mos keladi va amalda qo'llanmoqda, bu esa xalqaro baholarda qatnashishga imkon yaratadi. Better Life Index ko'rsatkichlari esa qisman mavjud bo'lsa-da, subyektiv ko'rsatkichlar (masalan, hayotdan qoniqish) statistikasining mavjud emasligi uni to'liq joriy etishni cheklaydi.

Shunga qaramay, bu indeksni moslashtirish orqali O'zbekistonda hayot sifati monitoringini rivojlantirish mumkin.

Prosperity Index esa O'zbekiston statistikasi bilan nisbatan yuqori darajada mos tushadi va tizimli yondashuvi tufayli tatbiq etish imkoniyati katta. Biroq, u mahalliy sharoitlarga mos indikatorlar bilan boyitilishi zarur. World Happiness Report esa subyektiv so'rovlar tizimi yetarli darajada shakllanmaganligi sababli hozircha cheklangan qo'llanishga ega.

Xorijiy mamlakatlarning farovonlikni baholashda qo'llayotgan ilg'or yondashuvlari O'zbekistonning demografik, madaniy va iqtisodiy sharoitlarini inobatga olgan holda moslashtirilishi mumkin. Eng maqbul yondashuvlar quyidagilardir:

HDI – inson salohiyatini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlar orqali;

Better Life Index – hayot sifati va subyektiv farovonlikka asoslangan baholash;

Prosperity Index – tizimli va institutsional omillarni o'z ichiga olgan tahlil;

Stiglitz-Sen-Fitoussi modeli – YalMdan tashqari indikatorlar orqali kompleks baholash;

Farovonlik byudjeti – moliyaviy rejalashtirishni ijtimoiy ustuvorliklar bilan uyg'unlashtirish.

Xorijiy indekslar komponentlarini O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali milliy farovonlik baholash modelini yaratish imkoniyati mavjud. Bu esa ijtimoiy siyosat samaradorligini oshirish va aholi turmush sifati chuqurroq tahlil qilishga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Ilg'or xorijiy farovonlik indekslarining solishtirma jadvali¹

Indeks nomi	Tashkilot	Yil	Asosiy ko'rsatkichlar	Afzalliklari	Kamchiliklari
HDI (Human Development Index)	UNDP	1990	Umr davomiyligi, ta'lim, daromad	Oddiy, xalqaro e'tirofga ega	Ijtimoiy va ekologik jihatlar yetishmaydi
Better Life Index	OECD	2011	11 ta ko'rsatkich (sog'liq, ta'lim, xavfsizlik, hayotdan mamnunlik va b.)	Moslashtiriladi, interaktiv	Subyektiv ko'rsatkichlarga bog'liq
Prosperity Index	Legatum	2007	12 ta mezon (institutsional, ijtimoiy, iqtisodiy va b.)	Tizimli, barqarorlikni o'lchaydi	Ayrim mamlakatlarda statistik cheklovlar mavjud
World Happiness Report	UN	2012	Hayotdan mamnunlik, erkinlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Subyektiv farovonlikni aks ettiradi	Obyektiv ko'rsatkichlar yetarli emas

1-jadvalda farovonlikni baholash bo'yicha xalqaro indekslar turli mezonlarga asoslanadi va har birining o'ziga xos afzallik va cheklovlari mavjud. HDI – eng keng tan olingan va oddiy indeks bo'lib, asosiy uchta ko'rsatkich orqali baholaydi, biroq ijtimoiy va ekologik jihatlarini hisobga olmaydi. Better Life Index esa ko'p o'lchovli va interaktiv yondashuvga ega bo'lib, foydalanuvchiga moslashtirish imkonini beradi, lekin subyektiv baholarga tayanadi. Prosperity Index tizimlilik va barqarorlikni o'lchashda kuchli vosita sanaladi, biroq statistik ma'lumotlar cheklangan mamlakatlar uchun to'liq tatbiq etilishi qiyin (2-jadval).

¹ United Nations Development Programme. Human Development Report. Yillik nashrlar. — <http://hdr.undp.org>

2-jadval. Xorijiy yondashuvlarning O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkinligi²

Yondashuv (indeks/ model)	O'zbekiston statistikasi bilan mosligi	Qo'llash imkoniyati	Zarur moslashtirishlar
HDI	Yuqori	Mumkin	Yo'q (allaqachon qo'llanmoqda)
Better Life Index	O'rta	Mumkin	Subyektiv ko'rsatkichlar joriy etish
Prosperity Index	O'rta – Yuqori	Mumkin	Mahalliy indikatorlar bilan boyitish
World Happiness Report	Past	Cheklangan	Subyektiv so'rovnomalarga tizimini joriy etish

2-jadvalda ko'rishimiz mumkinki, HDI – O'zbekistonda rasmiy statistik ma'lumotlar bilan to'liq mos keladi va allaqachon qo'llanmoqda. Shuning uchun qo'shimcha moslashtirish talab etilmaydi.

Better Life Index – Statistik jihatdan qisman mos tushadi. Aholining hayotdan qoniqish darajasi, xavfsizlik kabi subyektiv ko'rsatkichlarni joriy etish orqali bu modeldan foydalanish imkoniyati mavjud.

Prosperity Index – Ko'plab mezonlari (institutsional, iqtisodiy, ijtimoiy) O'zbekiston sharoitiga mos keladi. Modelni mahalliy indikatorlar bilan boyitish orqali amaliyotga tatbiq etish mumkin.

World Happiness Report – Subyektiv so'rovnomalarga tayanadi, bu esa O'zbekistonda statistik va institutsional jihatdan hozircha cheklangan. Uni qo'llash uchun keng qamrovli ijtimoiy so'rov tizimini yaratish zarur.

3-jadval. Ilg'or yondashuvlar asosida ishlab chiqiladigan "Milliy farovonlik indeksi" tarkibiy tuzilmasi (taklif)³

Yo'nalishlar	Ko'rsatkichlar misoli	Baholash turi (obyektiv/subyektiv)
Sog'liq	O'rtacha umr ko'rish	Obyektiv
Ta'lim	O'qish davomiyligi, savodxonlik darajasi	Obyektiv
Bandlik	Ishsizlik darajasi, bandlik sifati	Obyektiv
Hayotdan mamnunlik	Subyektiv qoniqish, xavfsizlik	Subyektiv
Ijtimoiy tenglik	Daromadlar tengsizligi, gender farqlar	Obyektiv
Ekologik muhit	Havo sifati, yashil hudud ulushi	Obyektiv

3-jadval farovonlikni baholashda obyektiv va subyektiv ko'rsatkichlarning uyg'unligi muhim ahamiyatga ega. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sog'liq, ta'lim, bandlik, ijtimoiy tenglik va ekologik muhit kabi yo'nalishlar asosan obyektiv statistik ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Bular rasmiy ma'lumotlarga asoslanib, turmush sharoitining umumiy holatini aniq aks ettiradi.

Biroq, farovonlikning psixologik va ijtimoiy-emotsional jihatlarini o'lchash uchun hayotdan mamnunlik kabi subyektiv ko'rsatkichlar zarur. Ular orqali insonlarning o'z hayotidan qoniqish darajasi, xavfsizlik hissi va ijtimoiy muhitga munosabati aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi global va milliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda farovonlikni baholash masalasiga zamonaviy va tizimli yondashish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, aholining farovonligini chuqur va kompleks baholash siyosiy qarorlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va hayot sifatini yaxshilashning muhim omilidir. Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- O'zbekiston sharoitiga mos holda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va subyektiv ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan milliy farovonlik indeksini ishlab chiqish indeksda bandlik sifati, sog'liq, ta'lim, turar-joy sharoitlari, ijtimoiy ishtirok, erkinlik va xavfsizlik darajalari kabi ko'rsatkichlar integratsiyalashgan bo'lishi lozim;

2 Helliwell, J.F., Layard, R., Sachs, J. (eds). World Happiness Report. UN Sustainable Development Solutions Network, 2012–2024.—
<https://worldhappiness.report>

3 OECD. Better Life Index. - <http://www.oecd.betterlife.index.org>



- farovonlikning nafaqat obyektiv (daromad, bandlik, xizmatlar sifati), balki subyektiv (hayotdan qoniqish, baxt hissi, xavfsizlik tuyg'usi) jihatlarini ham doimiy kuzatish va hisobga olish zarur;

- iqtisodchi va sotsiolog olimlarning, akademik institutlarning farovonlikni baholashga oid tadqiqotlarini qo'llab-quvvatlash, grantlar ajratish, ilm-fan va amaliy siyosat o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash zarur.

ilg'or xorijiy yondashuvlar, xususan, OECD, UNDP va Legatum Institute kabi tashkilotlarning metodikasi O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan holda tatbiq etilishi kerak.

Ushbu takliflar farovonlikni baholash tizimini chuqurlashtirish, uni davlat siyosati va hududiy rejalashtirish bilan uzviy bog'lashga qaratilgan. Takliflarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi aholining yashash darajasini har tomonlama ko'rsatuvchi ishonchli indikatorlar tizimini shakllantirishga va farovon jamiyat sari yo'naltirilgan mamlakatimizda islohotlarning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Сен А. Развитие как свобода. – М.: Новое издательство, 2004. – 432 с.
2. Human Development Report 2021/2022. UNDP. URL: <https://hdr.undp.org>
3. Legatum Institute. The Legatum Prosperity Index 2023. – URL: <https://www.prosperity.com>.
4. Stiglitz J., Sen A., Fitoussi J.-P. Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress. Paris, 2009. URL: <https://www.insee.fr/en/information / 2571333>.
5. Аганбегян А.Г. Социально-экономическое развитие России. М.: Дело, 2020. – 384 с.
6. Копылова Е.И., Лексина Е.Н. Многокритериальный подход к оценке благосостояния населения // Экономика и управление. 2021. №5 (177). С. 35–42.
7. Albekov M.M., O'marov A.T. Barqaror rivojlanish sharoitida aholi farovonligini baholash masalasi to'g'risida // Qozog'iston iqtisodiyoti va huquqi byulleteni. 2020. № 2. 41–48-betlar.
8. Hayitov A.X., Qodirov M.A. Aholining darajasi va uni ishlab chiqarish mezonlari // Iqtisodiyot va ta'lim. 2021. – No 4. B. 56–63.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>